

MULKDORLARDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA DAXLDORLIK TUYG‘USINI SHAKLLANISHIDA MA’NAVIY YETUKLIKNING AHAMIYATI

Raxmankulov Farxod Raximkulovich

Termiz davlat pedagogika instituti
Falsafa, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi kafedrasida katta o‘qituvchisi
+998996740086
E-mail: fedizara07@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mulkdorlar qatlamida qolaversa yoshlarda vatanga daxldorlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllanishi, jamiyatda ma’naviy yetuklikning rivojlanishi va bu rivojlanishda mulkdorlarning qatlamining roli to‘g‘risidagi fikr va mulohazalar umumlashtirishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: mulkdorlar qatlami, taraqqiyot, daxldorlik tuyg‘usi, vatanparvarlik, ma’naviy yetuklik.

ABSTRACT:

This article attempts to summarize the ideas and observations on the formation of feelings of patriotism and belonging to the homeland among the property-owning class, as well as among young people, the development of spiritual maturity in society, and the role of the property-owning class in this development.

Keywords: property-owning class, development, sense of belonging, patriotism, spiritual maturity.

KIRISH

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng xalqimiz ongida g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘ldi. Ushbu g‘oyaviy bo‘shliqni vatanparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan qadriyat, urf-odat va mafkuralar zarur edi. Ushbu ezgu maqsadlarni amalga oshirish uchun davlatimiz boshchiligida qonun ijodkorlari, xalq vakillari, soha mutaxassislari, keng jamoatchilik va yetuk olimlar bel bog‘lashdi¹. Ular xalqimiz ongini vatanparvarlik g‘oyalarini, ezgu maqsadlarni singdirish maqsadida katta ko‘lamdagi ishlarni amalga oshirishdi. Tadqiqotchi – olimlar bu borada o‘z ilmiy ishlarida turli tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

¹ Rakhmankulov, F. R. (2023, October). THE NEED TO FORM A SENSE OF SOCIAL RESPONSIBILITY AMONG THE OWNERS. In Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 10, pp. 17-19).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasi mamlakatimizda erkin, farovon, demokratik davlat barpo etilib, “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” degan muhim tamoyil hayotimizda chuqur ildiz otayotgani hamda mamlakatimizda bu sohada izchil davlat siyosati amalga oshirayotganligini keng namoyon etdi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimiz Prezidenti lavozimiga kirishgan ilk kundan erkin, farovon, demokratik davlat barpo etish g‘oyasini ilgari surib, bu boradagi muhim vazifalarni belgilab berdi. Shunga muvofiq mamlakatimizni izchil rivojlantirish, modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishning 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur Davlat dasturining “Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish” yo‘nalishi ijrosi doirasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar olib borildi. Bu O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun davlat siyosati darajasida keng qamrovli, tizimli ishlar amalga oshirilayotganiga yaqqol dalildir.

Murojaatnomada “nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bugungi kunda aholini o‘ylantirayotgan muammolarga davlat idoralari e‘tiborini qaratib, o‘zlarining asoslangan takliflarini berib borishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi”², deya bu masalaga ham alohida e‘tibor qaratildi. Hududlar darajasida ijtimoiy sheriklikni yo‘lga qo‘yish, Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining faoliyatini takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga oid va jamoatchilikda alohida qiziqish uyg‘otadigan o‘ta muhim masalalarga doir qarorlarni qabul qilishda jamoatchilik bilan maslahatlar, jamoatchilik eshituvlarini o‘tkazish majburiyatini aniq belgilash, davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro yaqin hamkorlik o‘rnatish maqsadida Malakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish o‘z taklif va mulohazalarini bildirib o‘tdilar³.

Ochiqlik, oshkoralik hayotimiz mezoniga aylanayotgan mamlakatimizda xalq bilan samarali muloqotni ta‘minlash dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ma‘lumki, besh yil muqaddam ilk bor mamlakat aholisi va hukumatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqoti yo‘lga qo‘yilgani, endilikda bu borada olib borilayotgan ishlarni, xalq bilan

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлис Сенати ва Қонунчилик палатаси аъзоларига Мурожаатномаси.-Т.: 29 декабрь. 2020.

³ Раҳманкулов, Ф. (2023). MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOY MAS‘ULIYAT TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(11).

muloqot holati va rivojlanishini o‘rganish, davlat organlari faoliyati ochiqligini tizimli tahlil qilish joriy etilgani ham to‘g‘ri yo‘lni tanlab olganimizni ko‘rsatmoqda. Bu boradagi yutuqlarimiz xalqaro hamjamiyat tarafidan ham e‘tirof etilayotgani quvonarlidir. Mazkur yo‘nalishlarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sohasida ilmiy va ekspert doiralar ishtirokida amaliy tadqiqotlar o‘tkazib, ularning natijalarini umumlashtirish asosida kelajakda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning milliy modelini yanada takomillashtirish, strategik yo‘nalishlarini belgilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish tizimini yaratayotganimiz o‘z samaralarini bermoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xo‘sh, ijtimoiy hayotimizni o‘zgartirishga xizmat qiladigan ushbu hujjat bilan fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishga qanday muhim vazifalar qo‘yilmoqda?

Bu jarayonda birinchidan, sohaning normativ-huquqiy tartibga solinishi holatini, huquqni qo‘llash amaliyoti, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni o‘rganib, davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yib, faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Ikkinchidan, jamiyatda siyosiy partiyalar rolini oshirib, raqobatdosh ko‘p partiyali tizimning rivojlanish darajasini tahlil qilib borish va siyosiy partiyalar tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlarning elektorat manfaatiga xizmat qilishini ta‘minlovchi loyihalar joriy etiladi. Uchinchidan, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining muammolarini tizimli o‘rgangan holda fuqarolik jamiyatini tashvishga solayotgan dolzarb masalalar bo‘yicha ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va jamoatchilik eshituvlari o‘tkazish ta‘minlanadi. Shuningdek, rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi asosida davlat va jamiyat o‘rtasida ochiq muloqotni tashkil etib, fuqarolarning dolzarb muammolarini hal etishning optimal yondashuvlarini ishlab chiqish ham asosiy vazifalarimizdan biri bo‘ladi.

Mamlakatimizda mustaqilligimizning birinchi o‘n yilligida mulkchilik munosabatlari, mulkni davlat tasarrufidan chiqarib, mamlakat aholisiga xususiylashtirib berish, mulkdorlar qatlamini paydo bo‘lishi, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish kabi masalalar amalga oshirilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda esa tadbirkorlarning sonini oshirish, ularni jahon bozoridagi faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlar bilan raqobat qilishlari uchun sharoit yaratish, turli xil

jamoat fondlarini tashkil qilish, mulkdorlar qatlamida milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirish kabi masalalarga bog'ishlangan⁴.

Islahotlarning ilmiy va tahliliy jihatdan puxta ishlab chiqilishi va natijada mamlakatimizning kelajakda har tomonlama rivojlanishida muhim poydevor vazifasini o'taydi. Yangilanayotgan O'zbekiston tarixiy o'zgarishlar bilan jahonga yuz tutgan bugungi kunda qamrovli vazifalarni amalga oshirish shijoatli yoshlar, qolaversa mulkdorlar qatlami a'zolari, hayotiy tajribaga ega nuroniy oqsoqollar va umuman mamlakatimiz taraqqiyotiga ma'nau mas'ul bo'lgan fuqarolarning ma'nau yetukligiga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлис Сенати ва Қонунчилик палатаси аъзоларига Мурожаатномаси.-Т.: 29 декабрь. 2020.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.– 03.05.2019 йил. № (4307)
3. Rakhmankulov, F. R. (2023, October). THE NEED TO FORM A SENSE OF SOCIAL RESPONSIBILITY AMONG THE OWNERS. In Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 10, pp. 17-19).
4. Раҳманкулов, Ф. (2023). MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOIIY MAS'ULIYAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(11).
5. Rakhmankulov, F. R. (2023, October). THE NEED TO FORM A SENSE OF SOCIAL RESPONSIBILITY AMONG THE OWNERS. In Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 10, pp. 17-19).

⁴ Раҳманкулов, Ф. . (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА МУЛҚДОРЛАР ҚАТЛАМИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(13), 58–61